

**MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING KASBIY
FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH
MODELI**

Kodirov Akbar Shuhratovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Matematika va amaliy matematika" kafedrası

katta o'qituvchisi, ilmiy rahbar

E-mail: akbar2005ak@gmail.com

ORSID 0000-0002-3656-5770

Qobulova Fotima Bahodir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

3- bosqich 4.23 guruh talabasi.

E-mail: fotimaqobulova66@gmail.com

Jo'rayeva Dilafruz Muzaffar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

3- bosqich 4.23 guruh talabasi.

E-mail: niginajuraeva22@gmail.com

Annotatsiya: Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Ushbu maqolada

maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi haqida so'z brogan, hamda tarbiyachilarning AKT texnologiyalari haqida gap ketgan.

Kalit so'zlar: faxrli ish, pedagog, ilmiy faoliyat, pedagogik tarbiyachi, bolani har tomonlama rivojlantirish, -atvor me'yorlari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb-hunar malaka va ko'nikmalar.

Abstract: The educator has a responsible role to play in preparing our young generation to be worthy children of our people. This article discusses the specifics of the pedagogical activity of a preschool educator.

Keywords: honorary work, pedagogue, scientific activity, pedagogical educator, comprehensive development of the child, norms and rules of conduct, basics of scientific knowledge, professional skills and abilities.

Аннотация: Воспитатель выполняет не только почетную, но и чрезвычайно ответственную задачу, готовя молодое поколение к тому, чтобы они стали достойными детьми своего народа. В данной статье рассматриваются особенности педагогической деятельности воспитателя дошкольного образования.

Ключевые слова: почетный труд, педагог, научная деятельность, педагог-воспитатель, всестороннее развитие ребенка, нормы и правила поведения, основы научных знаний, профессиональные умения и навыки.

Maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning birlamchi bo'g'ini sifatida davlatimiz e'tirofidagi asosiy masal bo'lib kemoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzasida maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni qamrab olish atigi 27 foizni tashkil etishi va bu sohadagi ishlar e'tibordan chetda qoganligi ta'kidlab o'tildi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida katta ishlar amaga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari

to'g'risida"gi qarori ushbu fikrlarning isbotidir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda bog'chada, akademik litsey va kasb-hunar kolleji hamda oliy o'quv yurtlarida shakllanayotgan avlod ijobiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb-hunar malaka va ko'nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishini talab qiladi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy etuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda umum ta'lim maktablari bilan bir qatorda xalq ta'limining boshlang'ich bo'limi bo'lgan bolalar bog'chalari muhim rol o'ynaydi. Buning uchun har bir tarbiyachi o'zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya tashkilotlari oldiga qo'yan talablarni amalga oshirishning garovidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIY. Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtog'larini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Uzluksiz ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim tarbiyachisining pedagogik mahorati masalasi keng o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, o'ziga xos pedagogik tizimning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi. K.Hoshimov, R.M. Qodirova, F.R. Qodirova, N.SH. Nurmuxammedova, M.Ochilov, S.Temirova, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Q.Qurbonboev, J.Toshmatova, Sh.Olimov kabi olimlar ish olib borganlar. Taniqli pedagog, bolalarni ona

tiliga o'rgatish uslub va uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo'yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I.Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi: „Bog'chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog'bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli taʼsir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak. Bog'bonning tili bekam-u ko'st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo'lishi lozim“.

NATIJALAR Tarbiyachi maktabgacha taʼlim tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g.,oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g.,oyaviy-siyosiy va ilmiypedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo.,lgan ijodiy munosabatiga bog.,liq. Bolaning o.,quv faoliyatiga bo.,lgan munosabati ko.,proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachining o.,ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi – bolaning ruhiyatini, yosh va o.,ziga xos ruhiyfiziologik xususiyatlarini bilishdir.

Bolalar bog.,chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bo.,lishini oldindan ko.,ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

Tarbiyachi o.,z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shartsharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o.,ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o.,ziga xos xususiyatlarni (zararli bo.,lsa) yo.,qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo.,yadi.

Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo.,lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy taʼsiri juda katta bo.,ladi. CHunki bu davrdagi har bir taʼsurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning

maʼnaviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zoʻr kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda boʻlish – fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib boʻlmaydi.

MUHOKAMA Tarbiyachi bolalarga taʼlim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va koʻnikmalarini shakllantirib boradi. Ammo taʼlim berishda bosh rol ni mashgʻulot egallaydi. Mashgʻulotlar bolalar bogʻchasida taʼlimni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga maʼlum oʻrin va vaqt ajratilgan. Mashgʻulot tarbiyachi rahbarligida oʻtkaziladi, tarbiyachi mashgʻulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashgʻulotlarini tashkil etadi. Oʻquv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashgʻulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashgʻulot bolalarda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga birgalikdagi faoliyatda bolalar bir- birlariga faol taʼsir etishadi, oʻz tashabbusi, topagʻonligini namoyon qilish imkoniyati tugʻiladi. Bolalar ishiga zoʻr berishni talab etuvchi vazifa qoʻyilganda birgalikda qaygʻurishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi

XULOSA Har bir yosh guruhidagi bolalar, oʻz tarbiyachilari bilan maishiy-xoʻjalik, mehnat, oʻyin faoliyatida muloqotda boʻladilar. Tarbiyachi bolalar oʻyinini tashkil etadi, badiiy asarlarni oʻqib beradi yoki hikoya qiladi. Mana shu jarayonda tarbiyachi nutqining yaxshi tomonlari ham, nuqsonlari ham yaqqol namoyon boʻladi va bu xususiyatlar tarbiyalanuvchilar nutqida oʻz aksini topadi.

Demak, bolalar bogʻchasi tarbiyalanuvchilarining nutq xusu- siyatlari toʻlaligicha tarbiyachi nutqiga bogʻliq. Doimo bolalarning diqqat markazida boʻlgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi. Tarbiyachi har doim oʻz nutqiga

tanqidiy nuqtayi nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim.

REFERENCE

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. – 164 b.
2. Axmedjanov M.M., Xo,jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223- 225б
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(1), 778-782
5. М.Усмонова . Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
6. М.Усмонова .Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конференция. Тошкент. 25 май, 2017 йил
7. Садиковна, у. м. (2013). Ali Şir Nevai Eserlerinde Bitki Adları . Dil ve Edebiyat Araştırmaları , (8) , 0-0 . Retrieved from
8. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54
9. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.

10. Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1378-1383.
11. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *PsychologyandEducationJournal*, 58(2), 1339-1345.
12. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
13. Xasanova, G. (2020). Мактабгача таълим ташкилотларида халқ оғзаки ижоди воситаларидан фойдаланишнинг педагогик мазмуни. *Архив Научных Публикаций JSPI*.